O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (IJCSTR)
VOLUME 2 ISSUE 3/ ISSN 2181-3884

IELTS TESTIGA TAYYORLASH JARAYONIDA YOZMA VA OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH ZARURATI

Mirzayeva Zarnigor Odilsher qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant.
e-mail: mirzayevazarnigor054@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada IELTS testining mazmuni, tuzilishi va baholash mezonlari, ayniqsa, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalariga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi IELTS testiga tayyorlashda mavjud metodik yondashuvlarning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash hamda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish zaruratini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil va ilmiy adabiyotlarni sintezlash usullariga tayandi. Tahlil natijalari mahsuldor nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muntazam mashq qilish, individual va mezonlarga asoslangan fikr-mulohaza (feedback) olish hamda o‘quvchining o‘z xatolarini anglab, ularni qayta ishlashi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt ushbu jarayonni qo‘shimcha mashqlar, dastlabki fikr-mulohaza (feedback) va individuallashtirilgan topshiriqlar orqali kengaytirishi mumkin, biroq uning pedagogik qiymati o‘qituvchi rahbarligi va natijalarni tanqidiy tekshirish bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: IELTS, yozma nutq, og‘zaki nutq, sun’iy intellekt, tilni baholash, fikr-mulohaza, ingliz tilini o‘qitish, til kompetensiyasi.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ И УСТНОЙ РЕЧИ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К ТЕСТУ IELTS

Мирзаева Зарнигор Одилшер кизи

Андижанский государственный институт иностранных языков, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются содержание, структура и критерии оценивания теста IELTS, в частности компетентностные требования, предъявляемые к навыкам письменной и устной речи. Цель исследования заключается в выявлении возможностей и ограничений существующих методических подходов к подготовке к IELTS, а также в научно-методическом обосновании необходимости использования средств искусственного интеллекта. Исследование носит теоретико-аналитический характер и основывается на методах анализа документов, сравнительного и содержательного анализа, а также синтеза научной литературы. Результаты анализа показали, что развитие продуктивных речевых навыков тесно связано с регулярной практикой, получением индивидуальной обратной связи, основанной на критериях оценивания, а также с осознанием учащимися собственных ошибок и их последующей коррекцией. Искусственный интеллект может расширить возможности данного процесса посредством дополнительных упражнений, предварительной обратной связи и индивидуализированных заданий, однако его педагогическая ценность определяется руководящей ролью преподавателя и критической проверкой полученных результатов.

Ключевые слова: IELTS, письменная речь, устная речь, искусственный интеллект, языковое оценивание, обратная связь, преподавание английского языка, языковая компетенция.

THE NEED TO USE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS FOR DEVELOPING WRITING AND SPEAKING SKILLS IN IELTS PREPARATION

Mirzayeva Zarnigor Odilsher qizi

Andijan State Institute of Foreign Languages, PhD Student.

Abstract.

This article analyzes the content, structure, and assessment criteria of the IELTS test, with particular emphasis on the competency requirements for writing and speaking skills. The study aims to identify the opportunities and limitations of existing methodological approaches to IELTS preparation and to provide a scientific and methodological rationale for the use of artificial intelligence tools. The research is theoretical and analytical in nature and employs document analysis, comparative analysis, content analysis, and synthesis of relevant scholarly literature. The findings indicate that the development of productive language skills is closely associated with regular practice, individualized criterion-based feedback, and learners' ability to recognize and correct their own errors. Artificial intelligence can enhance this process by providing additional practice, preliminary feedback, and individualized tasks; however, its pedagogical value depends on teacher guidance and the critical evaluation of AI-generated results.

Keywords: IELTS, writing skills, speaking skills, artificial intelligence, language assessment, feedback, English language teaching, language competence.

Kirish. Ingliz tilini bilish darajasini xalqaro miqyosda ishonchli va qiyoslanadigan mezonlar asosida aniqlash zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, oliy ta'limga kirish, akademik mobillik va xalqaro mehnat bozorida faoliyat yuritish uchun til kompetensiyasini standartlashtirilgan baholashga ehtiyoj ortib bormoqda. IELTS imtihoni ana shunday baholash tizimlaridan biri bo'lib, unda tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozma va og'zaki nutq bir butun til kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida baholanadi [1].

IELTS imtihonining mazmuni faqat test topshiriqlarini bajarish texnikasi bilan chegaralanmaydi. Rasmiy baholash materiallari yozma va og'zaki nutqda fikrni shakllantirish, uni izchil tashkil etish, leksik hamda grammatik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish va og'zaki muloqotda tushunarli talaffuzni ta'minlashni talab etadi [1–3]. Shu jihatdan IELTS imtihoniga tayyorlash jarayoni test shaklini bilish bilan bir qatorda, mazkur ko'nikmalarni izchil rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Akademik modulning yozma nutq qismida birinchi topshiriq grafik, jadval, diagramma yoki jarayon ko'rinishida taqdim etilgan axborotni tahliliy-tavsifiy yondashuv asosida izchil bayon etishni nazarda tutadi. Ikkinchi topshiriq esa berilgan masala yuzasidan mantiqiy jihatdan izchil, dalillarga asoslangan va yaxlit fikr-mulohazani shakllantirib, uni yozma ravishda ifodalash ko'nikmasini baholashga yo'naltirilgan [2]. Ikkinchi topshiriq yakuniy yozma nutq natijasiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki nutq esa uch qismdan iborat suhbat shaklida tashkil etilib, nomzodning savollarga javob berishi, ma'lum bir mavzu bo'yicha uzluksiz gapirishi va mavzu yuzasidan qo'shimcha savollarda fikrini rivojlantirishi bilan tavsiflanadi [3].

Yuqorida ta'kidlangan talablar o'quvchidan bir martalik tayyorgarlik emas, balki takroriy mashq va muntazam o'qituvchi fikr-mulohazasini (feedback) talab qiladi. Hattie va Timperley tadqiqotlariga ko'ra, fikr-mulohazaning ta'lim jarayonidagi samaradorligi uning mazmuni, ko'zlangan maqsadi hamda taqdim etilish sharoitlari bilan bevosita bog'liq [4]. Nikol va Makfarleyn-Dik tadqiqotlarida samarali fikr-mulohaza o'quvchining o'z o'quv faoliyatini monitoring qilish, natijalarini baholash va keyingi faoliyatini mustaqil ravishda takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida talqin etiladi [5].

Shu nuqtadan kelib chiqib, maqolaning maqsadi IELTSning mazmuni, tuzilishi va kompetensiyaviy-baholash talablarini tahlil qilish hamda mavjud tayyorlov metodikalarining yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash orqali sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish zaruratini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot savollari quyidagicha belgilandi:

1. IELTS yozma va og'zaki nutq uchun qanday kompetensiyalarni talab qiladi?
2. Amaldagi tayyorlov jarayonida qanday metodik ehtiyojlar mavjud?
3. Sun'iy intellekt ushbu ehtiyojlarni qanday qo'llab-quvvatlashi mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

IELTSga tayyorgarlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda testga xos topshiriqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bilan umumiy akademik til kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan tayyorgarlikning o'zaro nisbati alohida ko'rib chiqilgan. Xususan, Greenning qiyosiy tadqiqot natijalari IELTSga maxsus yo'naltirilgan tayyorlov kurslari akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda boshqa turdagi tayyorlov kurslariga nisbatan sezilarli ustunlikni ta'minlamaganini ko'rsatgan [6]. Muallifning xulosasi test tayyorlovining o'zi yetarli emasligini, tayyorlov mazmuni va o'quv faoliyatining sifati natijaga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Yozma nutqni rivojlantirishda fikr-mulohaza (feedback) olish alohida metodik ahamiyatga ega. Flekenshteyn,

Liebenov va Meyer tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlilda 20 ta tadqiqot, 84 ta ta’sir ko‘rsatkichi va 2 828 nafar ishtirokchi ma’lumotlari umumlashtirilgan. Natijada avtomatlashtirilgan yozma fikr-mulohazaning yozma faoliyat natijalariga o‘rtacha ijobiy ta’siri aniqlangan, biroq tadqiqotlar natijalari o‘rtasidagi sezilarli farqlar bunday vositalarni yagona va bir xil ta’sirga ega usul sifatida baholash mumkin emasligini ko‘rsatgan [7].

So‘nggi tadqiqotlar sun’iy intellekt asosidagi suhbatlashuvchi tizimlar (chatbotlar)ning til o‘rganishdagi imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Vacharapol Vibulyasarin va hammualliflarning 2025-yilgi tizimli sharhida 2020–2024-yillarda chop etilgan 30 ta empirik tadqiqot tahlil qilinib, sun’iy intellekt asosidagi suhbatlashuvchi tizimlarning, ayniqsa, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, jumladan, real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza, takroriy mashq qilish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash salohiyati qayd etilgan [8]. Shu bilan birga, murakkab kontekstni anglash va insoniy muloqotning nozik jihatlarini to‘liq aks ettirishda cheklovlar mavjudligi ko‘rsatilgan.

Ekizerning 2025-yilgi meta-tahlilida ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishga oid 23 ta tajribaviy va kvazi-tajribaviy tadqiqot umumlashtirilgan. Natijalar sun’iy intellektdan foydalanishning umumiy ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, tadqiqotlar natijalari o‘rtasida sezilarli darajada farqlilik kuzatilgan. Bu esa sun’iy intellekt vositalarining ta’limiy samaradorligini faqat vositaning o‘zi bilan emas, balki o‘quvchilarning xususiyatlari, topshiriq turi, baholash mezonlari hamda pedagogik jarayonning tashkil etilishi kabi omillar bilan bog‘liq holda baholash zarurligini ko‘rsatadi [9].

2026-yilda o‘tkazilgan uch darajali meta-tahlilda 11 875 nafar o‘quvchiga oid ma’lumotlar umumlashtirilib, sun’iy intellekt yordamida taqdim etilgan fikr-mulohazaning ta’limiy natijalarga mo‘tadil darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Eng yuqori ta’sir o‘quvchilarning hissiy jalb etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan [10]. Ushbu natijalar sun’iy intellektning ta’limiy samaradorligini faqat o‘quvchilarning test natijalari orqali emas, balki ularning o‘quv jarayonidagi faol ishtiroki hamda fikr-mulohazalarni tahlil qilish va ulardan keyingi faoliyatini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlari orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, IELTS baholash mezonlari, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish, individual fikr-mulohaza hamda sun’iy intellekt asosidagi mashqlar turli tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Biroq ushbu yo‘nalishlarni aynan IELTSga tayyorgarlik jarayonida yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘i IELTS baholash mezonlari, maqsadli mashqlar, sun’iy intellekt yordamida beriladigan dastlabki fikr-mulohaza, o‘quvchining javobini qayta takomillashtirishi va o‘qituvchi nazoratini yagona metodik tizimda uyg‘unlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola nazariy-tahliliy tadqiqot sifatida ishlab chiqildi. Tadqiqotda birlamchi tajriba, so‘rovnoma yoki tajriba-sinov ma’lumotlari yig‘ilmadi. Asosiy metodlar sifatida sifatli hujjat tahlili, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil va ilmiy adabiyotlarni sintezlash qo‘llanildi. Mazkur metodik yondashuv IELTSning rasmiy baholash talablari bilan til o‘qitish va sun’iy intellektdan foydalanishga oid ilmiy dalillarni o‘zaro bog‘lash imkonini berdi.

Manbalarni tanlashda uch yo‘nalishga e’tibor qaratildi. Birinchi yo‘nalishga IELTSning rasmiy test formati, yozma va og‘zaki nutqni baholash mezonlari hamda daraja tavsiflari kiritildi [1–3]. Ikkinchi yo‘nalishda IELTSga tayyorlash, qayta aloqa va yozma nutqni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi [4–7]. Uchinchi yo‘nalishda sun’iy intellekt, suhbatdosh dasturlar va avtomatlashtirilgan fikr-mulohazaning til ta’limidagi samaradorligini o‘rgangan tizimli sharh va meta-tahlillar ko‘rib chiqildi [8–10].

Tahlilning birinchi bosqichida IELTS yozma va og‘zaki nutq uchun belgilagan konstruktlar aniqlashtirildi. Ikkinchi bosqichda ushbu konstruktlarni shakllantirish uchun zarur pedagogik shartlar — muntazam mashq, individual fikr-mulohaza, o‘z-o‘zini tahlil qilish va qayta ishlash — ajratildi. Uchinchi bosqichda sun’iy intellekt vositalarining mazkur shartlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari va cheklovlari qiyoslandi.

Tadqiqotning muhim metodologik tamoyili shundan iboratki, sun’iy intellekt imkoniyatlari oldindan ijobiy natija beradi degan taxmin asosida emas, mavjud ilmiy dalillar bilan chegaralangan holda talqin qilindi. Xususan, noto‘g‘ri tavsiya berish, o‘quvchining vositaga haddan tashqari tayanishi, maxfiylik, akademik halollik va pedagogik kontekstning yetishmasligi kabi xavflar ham hisobga olindi. Zavakki-Rixter va hammualliflar oliy ta’limda sun’iy intellekt tadqiqotlarida pedagogik nuqtayi nazarning yetarli darajada markazga qo‘yilmaganini qayd etgan [11].

Shuningdek, UNESCO generativ sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida foydalanishda inson markazidagi yondashuvni, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni hamda sun’iy intellekt tizimlarining axloqiy va pedagogik jihatdan maqbulligini ta’minlashni muhim tamoyillar sifatida belgilaydi [12]. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada o‘qituvchi va sun’iy intellektning funksiyalari bir-birini to‘ldiruvchi hamkorlik modeli sifatida talqin qilinadi.

Tahlil va natijalar

IELTSning rasmiy baholash mezonlari yozma va og‘zaki nutqni ko‘p tarkibli kompetensiya sifatida belgilaydi. Yozma nutqda topshiriq talabini bajarish, fikrlarni izchil tashkil etish, leksik resurslardan foydalanish hamda grammatik diapazon va aniqlik baholanadi [2]. Og‘zaki nutqda esa ravonlik va izchillik, leksik resurs, grammatik diapazon va aniqlik hamda talaffuz asosiy mezonlarni tashkil etadi [3]. Demak, yuqori natijaga erishish bitta til hodisasini mukammal bilishga emas, bir nechta kompetensiyaning birgalikda namoyon bo‘lishiga bog‘liq.

Og‘zaki nutq mezonlarining har biri o‘quvchi uchun aniq pedagogik vazifani yuzaga keltiradi. Ravonlik va izchillik fikrni uzoq to‘xtalishlarsiz, mantiqiy bog‘langan holda rivojlantirishni; leksik resurs mavzuga mos va yetarlicha xilma-xil birliklardan foydalanishni; grammatik diapazon va aniqlik turli tuzilmalarni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llashni; talaffuz esa nutqning tushunarliligini ta’minlashni talab qiladi [3]. Bu kompetensiyalarni faqat namunaviy javoblarni yodlash orqali shakllantirish qiyin.

Yozma nutqda ham topshiriqni bajarish bilan bir qatorda fikrni rivojlantirish va dalillash, matn qismlarini mantiqiy bog‘lash, so‘z tanlovini aniqlashtirish va grammatik vositalarni nazorat qilish zarur [2]. Shuning uchun o‘quvchi birinchi yozgan matnini yakuniy natija deb qabul qilmasdan, xatolarni aniqlash, sababini tushunish va matnni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

An’anaviy tayyorlov metodikasining kuchli jihati o‘qituvchining o‘quvchi darajasi, topshiriq mazmuni va individual xususiyatlarini hisobga olishi bilan bog‘liq. Biroq katta guruhlarda har bir yozma ishga batafsil izoh berish yoki har bir talabaga muntazam og‘zaki nutq amaliyotini tashkil etish ko‘p vaqt talab qiladi. Green tadqiqotida maxsus IELTS tayyorlovining o‘z-o‘zidan yozma natijalarda aniq ustunlik bermagani ham tayyorlov mazmuni va tashkil etilishiga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Shu bilan birga, sun’iy intellektning imkoniyatlari an’anaviy tayyorlovning o‘rnini bosish emas, uning individual mashq imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim. Masalan, suhbatdosh tizim o‘quvchiga bir xil mavzu bo‘yicha bir necha marta gapirish imkonini berishi, yozma ish yuzasidan dastlabki tavsiyalar berishi yoki muayyan grammatik va leksik birliklarni qayta mashq qildirish uchun topshiriqlar yaratishi mumkin [8–10].

IELTS kompetensiyalari bilan tayyorlov jarayonidagi metodik ehtiyojlar, sun’iy intellektning yordamchi imkoniyatlari hamda o‘qituvchining vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi jadvalda umumlashtiriladi.

IELTS kompetensiyasi	**An’anaviy tayyorlovdagi ehtiyoj**	**Sun’iy intellekt yordamidagi imkoniyat**	**O‘qituvchining vazifasi**
Ravonlik va izchillik (Speaking)	Takroriy og‘zaki mashqlar va individual fikr-mulohaza uchun qo‘shimcha vaqt talab etiladi.	Suhbatni takroriy tashkil etish, savollarni o‘quvchi darajasiga moslashtirish va qo‘shimcha og‘zaki mashqlarni taqdim etish.	Nutqning mazmuni, mantiqiy izchilligi va IELTS mezonlariga muvofiqligini baholash.
Leksik resurs (Speaking & Writing)	Har bir o‘quvchining individual leksik ehtiyojlari bo‘yicha mashqlarni muntazam tashkil etish qiyin.	Mavzu va darajaga mos leksik birliklarni tanlash, ularni kontekstda qo‘llash uchun individual mashqlar yaratish.	Leksik birliklarning tabiiyligi, aniqligi va kommunikativ vazifaga muvofiqligini tekshirish.
Grammatik diapazon va aniqlik (Speaking & Writing)	Yozma va og‘zaki nutqdagi grammatik xatolarni batafsil tahlil qilish ko‘p vaqt talab etadi.	Grammatik xatolarni dastlabki aniqlash, ularni izohlash va qayta ishlash uchun mashqlar taklif etish.	SI tavsiyalarining to‘g‘riligini tekshirish, zarur izoh va metodik yo‘naltirishni berish.
Talaffuz (Speaking)	Har bir o‘quvchiga individual talaffuz mashqlarini muntazam tashkil etish imkoniyati cheklangan.	Takroriy talaffuz mashqlari, ovozli muloqot va individual mashq imkoniyatlarini taqdim etish.	Talaffuzning tushunarliligi, aniqligi va kommunikativ samaradorligini baholash.
Izchillik va bog‘liqlik (Writing)	Yozma ishni bir necha bosqichda qayta ishlash uchun individual ko‘rsatma va muntazam fikr-mulohaza zarur.	Matn tuzilishi, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish va mantiqiy rivojlanish bo‘yicha dastlabki	Fikrning rivojlanishi, dalillarning asoslanganligi va matnning umumiy mantiqiy

		tavsiyalar berish hamda qayta ishlash imkonini yaratish.	yaxlitligini yakuniy baholash.

1-jadval. IELTS kompetensiyalari, tayyorlov ehtiyojlari va sun'iy intellekt yordamidagi imkoniyatlarning qiyosiy tavsifi.

Manba: muallif tomonidan IELTSning rasmiy baholash mezonlari va tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar asosida tuzildi [1–3; 7–10].

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining asosiy metodik imkoniyati o'quvchilarga qo'shimcha mashq qilish, individual topshiriqlarni bajarish va tezkor dastlabki fikr-mulohaza olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish o'qituvchining pedagogik rolini cheklamaydi. Aksincha, o'qituvchi tomonidan sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarning aniqligi, topshiriq talablariga muvofiqligi va o'quvchining individual kommunikativ ehtiyojlariga mosligi baholanishi hamda zarur hollarda tuzatilishi lozim.

Flekenstayn va hammualliflar avtomatlashtirilgan yozma fikr-mulohazaning o'quv natijalariga o'rtacha ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan bo'lsalar-da, tadqiqotlar natijalaridagi sezilarli tafovutlar bunday ta'sirni muayyan ta'limiy kontekst doirasida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi [7]. Ekizerning tadqiqotlari ham sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligi o'quvchining xususiyatlari, foydalanilayotgan texnologiyaning imkoniyatlari va baholash sharoitlariga qarab farqlanishini ko'rsatadi [9]. Shundan kelib chiqib, sun'iy intellekt vositalarini IELTS imtihoniga tayyorlov jarayoniga shunchaki integratsiya qilish emas, balki ularning funksiyalarini IELTS baholash mezonlari, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va pedagogik maqsadlar bilan uzviy bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Muhokama

Tahlil natijalari IELTSga tayyorlashda metodik muammoning markazida texnologiyaning yetishmasligi emas, individual mashq va sifatli fikr-mulohazani muntazam tashkil etish masalasi turishini ko'rsatadi. An'anaviy o'qitishda o'qituvchi o'quvchining javobini kontekstda baholaydi, xatolarning sababini tushuntiradi va keyingi o'quv vazifasini belgilaydi. Bu jihatlar sun'iy intellekt vositalarining avtomatik tavsiyalaridan ustun bo'lishi mumkin. Shu sababli texnologik vositani pedagogik qaror o'rniga qo'yish ilmiy jihatdan asoslanmagan.

Boshqa tomondan, sun'iy intellektning takroriy mashqni ko'paytirish va dastlabki fikr-mulohazani tezlashtirish imkoniyati amaliy jihatdan muhim. 2025-yilgi tizimli sharh suhbatdosh sun'iy intellekt tizimlari og'zaki va yozma nutqda mashq imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi [8]. 2026-yilgi meta-tahlil esa sun'iy intellekt yordamidagi fikr-mulohazaning ta'limiy natijalarga mo'tadil ijobiy ta'sirini qayd etadi, lekin uni qo'shimcha vosita sifatida pedagogik jihatdan puxta tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi [10].

Shu asosda IELTSga tayyorlashda "o'qituvchi + sun'iy intellekt" hamkorlik modeli maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bunda o'qituvchi IELTS mezonlari asosida vazifani belgilaydi; sun'iy intellekt qo'shimcha mashq va dastlabki fikr-mulohaza beradi; o'quvchi tavsiyalarni tanqidiy ko'rib chiqib, ishini qayta ishlaydi; o'qituvchi esa yakuniy pedagogik bahoni beradi. Bunday ketma-ketlik texnologiyaning qulayligini pedagogik nazorat bilan uyg'unlashtiradi.

Sun'iy intellektdan foydalanishda ayrim xavflar ham mavjud. Noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan tavsiya o'quvchini chalg'itishi mumkin; tayyor javoblarga ortiqcha tayanish mustaqil fikrlashni susaytirishi ehtimoli mavjud; shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va akademik halollik masalalari esa alohida nazoratni talab qiladi [12]. Shu sababli sun'iy intellekt bergan har qanday tavsiya avtomatik ravishda to'g'ri deb qabul qilinmasligi, balki IELTS mezonlari va o'qituvchi izohi bilan tekshirilishi kerak.

Xulosa va takliflar

IELTSning yozma va og'zaki nutqni baholash mezonlari o'quvchidan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir qator kommunikativ kompetensiyalarni namoyon etishni taqozo etadi. Yozma nutqni baholashda topshiriq talablarining bajarilishi, izchillik va bog'liqlik, leksik resurs, shuningdek, grammatik diapazon va aniqlik asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Og'zaki nutqni baholashda esa ravonlik va izchillik, leksik resurs, grammatik diapazon va aniqlik hamda talaffuz ko'rsatkichlari kompleks tarzda baholanadi [1–3]. Mazkur mezonlarning ko'p komponentli xususiyati IELTSga tayyorgarlik jarayonida tizimli, muntazam va o'quvchining individual ehtiyojlariga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt qo'shimcha mashq, dastlabki fikr-mulohaza va o'quv faoliyatini individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatdi [7–10]. Biroq natijalar barcha sharoitlarda bir xil emas. Shuning uchun sun'iy intellektni o'qituvchini almashtiruvchi vosita sifatida emas, o'qituvchi rahbarligidagi qo'shimcha pedagogik resurs sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan quyidagilar tavsiya etiladi: 1) sun'iy intellektga beriladigan topshiriqlarni IELTS mezonlari asosida tuzish; 2) og'zaki nutq uchun muntazam dialogik mashqlar tashkil etish; 3) yozma ishda "qoralama — sun'iy intellekt fikr-mulohazasi — qayta ishlash — o'qituvchi tekshiruvi" ketma-ketligini qo'llash; 4) sun'iy intellekt tavsiyalarini tanqidiy tekshirish; 5) akademik halollik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablariga rioya qilish; 6) o'qituvchining yakuniy pedagogik bahosini saqlab qolish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IELTS. IELTS Scoring in Detail: Band Scores Explained // *IELTS.org.* – 2026.

2. IELTS. *IELTS Writing Band Descriptors.* – IELTS Partners, 2023.
3. IELTS. *IELTS Speaking Band Descriptors.* – IELTS Partners, 2025.
4. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // *Review of Educational Research.* – 2007. – Vol. 77, No. 1. – P. 81–112. – DOI: 10.3102/003465430298487.
5. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // *Studies in Higher Education.* – 2006. – Vol. 31, No. 2. – P. 199–218. – DOI: 10.1080/03075070600572090.
6. Green A. Washback to Learning Outcomes: A Comparative Study of IELTS Preparation and University Pre-Sessional Language Courses // *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice.* – 2007. – Vol. 14, No. 1. – P. 75–97. – DOI: 10.1080/09695940701272880.
7. Fleckenstein J., Liebenow L. W., Meyer J. Automated Feedback and Writing: A Multi-Level Meta-Analysis of Effects on Students' Performance // *Frontiers in Artificial Intelligence.* – 2023. – Vol. 6. – Article 1162454. – DOI: 10.3389/frai.2023.1162454.
8. Wiboolyasarin W., Wiboolyasarin K., Tiranant P., Jinowat N., Boonyakitanont P. AI-Driven Chatbots in Second Language Education: A Systematic Review of Their Efficacy and Pedagogical Implications // *Ampersand.* – 2025. – Vol. 14. – Article 100224. – DOI: 10.1016/j.amper.2025.100224.
9. Ekizer F. N. Exploring the Impact of Artificial Intelligence on English Language Teaching: A Meta-Analysis // *Acta Psychologica.* – 2025. – Vol. 260. – Article 105649. – DOI: 10.1016/j.actpsy.2025.105649.
10. The Effects of AI-Assisted Feedback on Students' Perceptions, Emotions, and Learning Outcomes in L2 Writing: A Three-Level Meta-Analysis // *System.* – 2026. – Vol. 139. – Article 104018. – DOI: 10.1016/j.system.2026.104018.
11. Zawacki-Richter O., Marín V. I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education – Where Are the Educators? // *International Journal of Educational Technology in Higher Education.* – 2019. – Vol. 16. – Article 39. – DOI: 10.1186/s41239-019-0171-0.
12. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research.* – Paris: UNESCO, 2023.